

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi

Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

ХОЖА АХРОР ВАЛИЙ О'ЗЛИКНИ ANGLASH XUSUSIDA: QIYOSIY- FALSAFIY TAHLIL**ХОДЖА АХРАР ВАЛИ О ВОСПРИЯТИИ ИДЕНТИЧНОСТИ: СРАВНИТЕЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ****KHOJA AHRAR VALI ON PERCEPTION OF IDENTITY: A COMPARATIVE-PHILOSOPHICAL ANALYSIS****Navro'zova Gulchehra Ne'matovna**

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedراسи professorи, falsafa fanlari doktori

Аннотация

Мақолада инсон фалсафасининг долзарб масаласи бўлган ўзликни англашга оид Хожа Аҳрор Валий, Жалолуддин Румий, Алишер Навоийнинг ғоялари фалсафий таҳлил этилган.

Аннотация

В статье философски анализируются идеи Ходжи Ахрора Вали, Джалалуддина Руми, Алишера Навои относительно самосознания, которое является актуальным вопросом человеческой философии.

Annotation

The article philosophically analyzes the ideas of Khoja Akhror Vali, Jalaluddin Rumi, Alisher Navoi regarding self-awareness, which is a pressing issue in human philosophy

Калим сўзлар: инсон, ўзликни англаш, инсонийлик, илохий нусха, вужуд, вужудни англаш.

Ключевые слова: человек, самосознание, человечество, божественная копия, тело, телесное осознание.

Key words: man, self-awareness, humanity, divine copy, body, bodily awareness.

KIRISH

Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini qurish uchun o'zini anglagan, o'z hayot mazmunini tushunadigan, hushyor, ogoh, fahmu farosatli yoshlarni tarbiyalash davr talabidir. Bu muammoni hal etishda ma'naviy merosimizdagi o'zlikni anglashga oid asarlar va hikmatli so'zlarni o'rganmoq kerak. Ma'naviy xazinamizning qimmatbaho manbalaridan biri tasavvuf ta'limotidir. Tavalludining 620 yilligi nishonlanayotgan Xoja Ahror Valiyning o'zlikni anglashga oid g'oyalarini o'rganish yaxshi natija beradi.

Inson kamolotining asosiy mezonlaridan biri uni o'zligini anglashidir. Delfadagi Appolon ibodatxonasining devorlariga o'yib yozilgan va an'ana bo'yicha yetti yunon donishmandlaridan biri – Xilonga tegishli deb hisoblangan "O'zligingni angla!" shiori qadimgi antik davr falsafasidan hozirgi kungacha faylasuflar uchun o'zak masala bo'lib kelmoqda. Eramizdan avvalgi V asrda Protogor: "Inson barcha narsalarning o'lchovidir", degan fikrni ilgari surgan bo'lsa, Suqrot uchun "O'zligingni angla" hikmati donishmandlikning qoidasiga aylandi.

Sitseron: "Falsafa Falesdan boshlanadi, u birinchi edi", deb ta'kidlagan. Yetti donishmandning yetakchisi bo'lgan Fales: "Eng qiyin narsa nima?", degan savolga "O'zni anglash[9:10]", deb javob bergan. Faylasuf Xilon, "O'zingni bilgil va sen Xudolarni va koinotni bilib olasan[6:29]", degan.

Inson kamolotining eng mukammal, me'yordagi, hushyorlik yo'li tasavvuf ta'limotidagi naqshbandiya yo'lidir. Naqshbandiya kamolot yo'lini Bahouddin, Shoh Naqshband, Balogardon, Ulug' Xoja, Namaki Mashoyixo – Shayxlarning Tuzi nomlari bilan mashhur Muhammad ibn Muhammad al-Buxoriy (1318-1389) asoslagan. Hushyorlik yo'li sifatida mashhur bo'lgan bu ta'limot "Zebo ravish", "G'aroyib naqsh", "Ajab naqsh" sifatida ulug'langan va tan olingan.

Naqshbandiya ta'limotini jahoniy tariqatga aylantirgan, Bahouddin Naqshband g'oyalarini rivojlantirib, ixtilotdan murosayu madoraga keltirgan buyuk mutasavvif Xoja Ahror Valiydir. Bu ulug' siymo mustaqillik davrida yangicha nazar bilan, manbalar asosida o'rganila boshlandi. Bu sohada ustoz Botir Valixo'jaevning xizmatlari kattadir. Xoja Ahror Valiyning yozgan risolalari jamlanib, "Tabarruk risolalar[8]" nomi bilan nashr etilgan. Bu manba asosida Xoja Ahror Valiyning ma'naviy merosi falsafiy tahlil etilgan, monografiyalar nashr etilib[3,4,5], dissertatsiyalar yoqlandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xoja Ahror o'zining ikki asari "Risoi Havroiyya" - "Hurlar haqidagi risola" va "Fiqroti Ahroriya"da ham insonga nisbatan quyidagi ruboiyni keltiradi:

Ey nusxai nomai ilohi, ki tui,
Ey oinai Jamoli Shohi, ki tui.
Berun zi tu nest, har chi dar olam hast,
Dar xud bitalab ,har on chi xohi, ki tui[8:374].

Mazmuni:

Ilohiy nomaning nusxasi sensan,
Shoh (Haq) Jamolining ko'zguni sensan.
Nimaiki olamda bo'lsa, sendan tashqarida emas,
Nimani istasang, tashqiridan emas o'zingdan izla o'sha sensan[8:24, 8:69].

Bu ruboiyning tahlili ko'rsatadiki, Xoja Ahror Valiy insonni Olloh yaratgan butun borliqning nusxasi va ilohiy Shohning jamoli ekanligini ta'kidlamogda. Ma'lum bo'ladiki Xoja Ahror insonda butun borliqning barcha ko'rinishlari mavjud ekanligini ta'kidlamogda. Shuning uchun ham olamdagi bor narsalar insonda mavjudligi uchun inson nimaniki istasa o'zidan istashi lozim demogda.

Naqshbandiya tariqatining XV asrdagi yirik namoyandasi Xoja Ahror Rumiyl asarlarini bilgan va ulardan yaratgan ta'limotida foydalangan. Xoja Ahror Valiy hayoti va ta'limotiga bag'ishlangan Faxriddin Ali Safiyning "Rashahot ayn al-hayot" (Obi hayot tomchilari) asarida u kishidan saqlangan rashhalar haqida ma'lumot beriladi. Tadqiqotlarimiz natijasida aniqladikki, Xoja Ahror Valiydan saqlangan hayot beruvchi tomchilar – rashhalarning sakkiztasida Jaloliddin Rumiyl tilga olingan va u kishining g'oyalari bilan uyg'un fikr aytilgan.

Xoja Ahror 116-rashhada sirri ma'iyatni bayon etganda "Masnaviy"dan quyidagi baytlarni o'qiganlar:

Hamchu nobino mabar har so' dast,
Bo tu dar zeri gilam ast on chi hast.
Yori tu xo'rajini tustu kisaat,
Dar tu Romini maju juz Visaat.
Visu Romini tu, ham zoti tust,
Va in beruniho hama ofoti tust.
(Ko'r kishi kabi qo'lingni har tomonga cho'zma,
Xohlaganing gilaming ostida turibti.
Sening do'sting xo'rajining bilan cho'ntagingdir,
Romin o'zingda Visdan o'zgani qidirma.
Vis sening Romining va sening zotingdir,
Tashqaridagilaring sening ofatlaringdir[7:390].)

Masnaviydagi shu baytlarni Xoja Ahror "Fiqroti Ahroriyya" asarida ham keltirgan. Unda quyidagi misra ham bor:

Chand az in sargashta budan besabab,
Koni in gavhar tui, az xud talab[7:90].

Mazmuni:

Bu yo'lda sababsiz sargashta bo'lib yurma,
Bul gavharning koni o'zingdan talab qil.

Bu misralar Rumiylning Olloh talabida bo'lganlarga qarata, "Hech narsa sizdan tashqarida emas, ilohiy siz" deb aytganlariga uyg'un ekan:

بيد، خداييد آنان كه طلبكار خدا
حاجت به طلب نيست شماييد، شماييد
چيزي كه نكرديد گم از بهر چه جوييد؟
كس غير شما نيست، كجاويد، كجاويد؟

FALSAFA

در خانه نشینید و مگردید به هر در
 زیرا که شما خانه و هم خانه خدایید
 ذاتید و صفایید گهی عرش و گهی فرش
 در عین بقایید و میرا ز فنا بید
 اسمید و حروفید و کلامید و کتابید
 جبریل امینید و رسولان سما بید
 خواهید ببینید رخ اندر رخ معشوق
 زنگار ز آینه به صیقل بزدا بید
 تا بود که همچون شه رومی به حقیقت
 خود را به خود از قوت آینه نمایید

Onon, ki talabgori xudoed, xudoed,
 Hojat ba talab nest - shumoed, shumoed.
 Chize, ki nakarded gum az bahri chi jo'ed,
 Kas g'ayri shumo nest, kujoed, kujoed.
 Dar xona nishinedu magarded ba har dar,
 Zero, ki shumo xonavu xona Xudoed.
 Zotedu, sifotedu gahe Arshu, gahe farsh,
 Dar ayni baqoedu mubarro az fanoed.
 Ismedu, hurufedu, kalomedu, kitobed,
 Jibrili aminedu rasuloni samoed.
 Xohed bubined ruh andar ruhi ma'shuq,
 Zangor zi oina ba sayqal bizidoed.
 To buvad, ki hamchun shahi Rumi ba haqiqat,
 Xudro ba xud az quvvati oina namoed.[2:648]

Mazmuni:

Ey sizki Oллоhni talabidasiz,
 Ani izlashga hojat yo'q, Ilohiy Siz, Ilohiy Siz.
 Yo'qotmagan narsangizni nima uchun izlaysiz,
 O'zingizdan boshqa hech nima yo'q siz qaerdasiz.
 Uyda o'tiringu har joyga yurmang,
 Chunki siz ham xonasiz, ham xonaning xudosisiz.
 Zotsizu sifotsizu goh Arshu goh Farsh,
 Aslida boqiysizu fanodan mubarrosiz.
 Ismsizu hursizu kalomsizu kitobsiz,
 Jibrili Aminsizu samoning rasullarisiz.
 Maqsudingiz ruhini ko'rishni istasangiz,
 Ko'zgudan zangorni sayqallab tozalang.
 Shoh Rumi haqiqatda shundaydir,
 O'zingizni o'zingiz ko'zgu quvvatida ko'ring.

Xoja Ahror Valiyning o'zlikni anglashga oid g'oyalari Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylarga ham ta'sir etgan. Alisher Navoiy "Lison ut-Tayr" dostonida yozgan quyidagi misralari ham Xoja Ahror fikrlari bilan uyg'undur.

O'z vujudingga tafakkur aylagil,
 Harne istarsen o'zungdin istagil[1:301].

Xoja Ahror shu mazmundagi "Man arafa nafsahu faqod arafa Robbahu" - "Kimki o'z nafsini tanisa, bas u (shundan so'ng) o'z Robbisini tanigay" hadisini ham keltiradi.

Xoja Ahror inson o'zligini anglashi uchun insoniylik haqiqatiga erishishi zarur. Buning uchun inson sa'y-harakat, himmat va vaqtga e'tiborni qaratishi lozim. Xoja Ahror Valiy: "Kunlarni behuda o'tkazmaslik kerak. Umrni shunday narsaga sarf qilmoq lozimki, sendan maqsad shul bo'lsin. Sening kamoling o'shandadir[8:120-121]" deb, u har bir inson o'z hayotining mazmun-mohiyatini, o'z iste'dodini tanishi va jamiyatda o'z o'rnini topa olishi lozimligini uqtiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, Xoja Ahror Valiyning insonni o'zligini anglash, insoniylik, inson haqiqatiga oid g'oyalari hozirgi kundagi inson falsafasining dolzarb masalalarini ichiga oladi. Bu quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Xoja Ahror Valiy insonni butun borliqning kichraytirilgan nusxasi ekanligini ta'kidlab o'zini anglashga tavsiya etadi.
- Xoja Ahrorning o'zlikni anglashga oid g'oyalari Jaloliddin Rumiyning ma'naviy merosiga tayanadi.
- Xoja Ahror Valiyning o'zlikni anglashga oid g'oyalari Alisher Navoiyning ma'naviy kamolotining asoslaridan biri bo'lgan.

Umumiy xulosa qilib aytish mumkinki, inson falsafasining davr talabi asosida o'rganishda tasavvuf falsafasi va uning yirik namoyandasi Xoja Ahror Valiyning ma'naviy merosini chuqur va har tomonlama o'rganish davr talabidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alisher Navoiy. Lisonut-tayr. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. O'n ikkinchi tom. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti, 1996. 712 b.
2. Jaloliddin Rumi. Devoni Shams. 648-g'azal.
3. Navro'zova G.N., Raxmatova X.X. Naqshbandiya tushunchalari genezisi. – Buxoro: «Buxoro» 2010. 150 b.
4. Rahmatova X.X. Xoja Ahror Valiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari. – Toshkent: «Adib» nashriyoti, 2014. 128 b.
5. Rahmatova X.X. Xoja Ahror Valiy ma'naviy merosida murosa falsafasiga doir g'oyalar tahlili. – Buxoro: Sadridin Salim Buxoriy, 2023. 232 b.
6. Serjilo tafakkur durdonalaridan. T.: Navro'z, 2003. 320 bet.
7. Faxruddin Ali Safiy. Rashahotu aynil-hayot («Obihayot tomchilari»): tarixiy-ma'rifiy asar / Tabdil qiluvchilar, nashrga tayyorlovchilar: M.Hasaniy, B.Umrzoq. Mas'ul muharrir: B.Umrzoq (O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti). – T.: Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2004. – 536 b.
8. Xoja Ubaydulloh Ahror. Tabarruk risolalar. Toshkent: Adolat, 2004. 386 b.
9. Haqiqat manzaralari. 96 mumtoz faylasuf. T.: Yangi asr avlodi, 2007. 372 bet.